

## МА'МURIY HUQUQNING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQ TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

*Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi*

*O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi*

*1-kurs talabasi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada demokratik mamlakatimizdagi huquq tizimi, bu tizimida o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan ma'muriy huquq haqida, uning asosiy vazifasi, boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi, O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi sohasida ma'muriy huquqning ahamiyati, uni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit va omillar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'uriy huquq, huquq tizimi tushunchasi, O'zbekiston Respublikasining huquq tizimi, davlat boshqaruvi.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat bo'lib, o'zining milliy huquq tizimiga ega. Ma'lumki, huquq tizimi – bu huquqning botiniy tuzilishi, uning ichki arxitekturasi, tarkibi bo'lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligi va qismlari o'rtasidagi munosabat, aloqadorlik hamda nisbatni ifodalaydi. Mamlakatimizda mavjud huquq tizimi bir qancha huquq sohaslaridan iborat. Bular: konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliya huquqi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi, yer huquqi, suv huquqi, oila huquqi, jinoyat huquqi va boshqalar. Ana shu huquq tizimida o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan huquq sohaslaridan biri bu ma'muriy huquqdir. Ma'muriy huquq – bu davlatning ijro hokimiyati organlari tuzilmasi va faoliyati doirasini o'rganishga, ularning xususiy shaxslar bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlari ko'lamini huquqiy tadqiq qilishga qaratilgan huquq fanining alohida mustaqil tarmog'idir. Ma'muriy huquq O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining yirik, salmoqli, rivoj topgan va murakkab tarmoqlaridan biridir. Uning bu maqomi ma'muriy huquq tartibga soladigan kuchli ijtimoiy munosabatlar mazmuni va ahamiyati bilan belgilanadi. Ma'muriy huquq davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni, ya'ni davlat organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyatida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

## ASOSIY QISM

Davlat boshqaruvi o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hayotning eng muhim tomonlarini qamrab oladi. Aynan ma'muriy huquqning o'rni davlat boshqaruvidagi munosabat-

larni tartibga solishida ko'rinadi. Chunki har bitta davlatning haqiqiy davlat bo'lishida uning boshqaruvi qanday tashkil etilishi har jihatdan muhimdir. Shu o'rinda davlat boshqaruvi tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, davlat boshqaruvi – bu ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirishga qaratilgan hamda qonun chiqarish va odil sudlov faoliyatidan shakli, uslublari va mazmuniga ko'ra ajralib turadigan alohida faoliyat turi hisoblanadi. Ma'muriy huquq ana shunday muhim vazifani amalga oshirish jarayonida ishtirok etadi.

Ma'muriy huquq – bu konkretlashtirilgan konstitutsiyaviy huquqdir. Zero, davlat boshqaruvining oliy yuridik asoslari Konstitutsiyada o'z ifodasini topadi.

Davlat boshqaruvi organlari va umuman davlat organlari voqeligini faqatgina siyosatshunoslik yoki sotsiologiya fanlari nuqtai nazaridan o'rganish bilan cheklanish davlat boshqaruv organlarining kelajakda samarali faoliyat ko'rsatishiga bo'lgan xulosaning yetarli emasligiga olib kelishi mumkin. Ana shunday vaziyatda ma'muriy huquqning orni yana bir bor namoyon bo'ladi.

Boshqaruv jarayonida turli huquq normalari ta'siri ostida bo'ladigan va ma'muriy huquq predmeti doirasiga kirmaydigan munosabatlar tartibga solinadi. Shu tariqa, O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi turli tarmoqlarining o'zaro munosabati vujudga keladi.

Ma'muriy huquq fani konstitutsiyaviy huquq va moliya huquqi fanlariga juda yaqin turadi. Lekin shu bilan birga bu huquq tarmoqlari o'zining tartibga solish predmeti va o'ziga xos xususiyatlariga qarab bir-biridan farqlanadi.

Ma'muriy huquq huquqiy fanlarning aksariyati bilan o'zaro uzviy bog'liqlikka ega. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bugungi kunda ma'muriy huquq tarmog'i ham tizim tashkil etuvchi fan tarmog'iga aylanib ulgurdi. Xususan, ma'muriy huquq negizida paydo bo'lib, bugungi kunda mustaqil fan tarmog'i sifatida o'rganilayotgan bir qator ma'muriy huquqning sohalari mavjud. Jumladan, moliya huquqi, davlat xizmati, ma'muriy protsess va boshqalar. Konstitutsiyaviy huquq fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini, ma'muriy huquq esa ularni amalga oshirish tartibini belgilab beradi, yanada aniqlashtiradi; fuqarolarning huquqiy maqomini boshqa huquq va majburiyatlar bilan to'ldiradi;

fuqarolar tomonidan huquq, erkinlik va majburiyatlar bajarilishining boshqaruv mexanizmini belgilab beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan fuqarolar davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga egadir. Ushbu jarayon konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solingan. Ma'muriy huquq esa, mana

shu shikoyatlarning qaysi organga tegishliligi, shikoyatni ko'rib chiqish muddati va tartibini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq moliya huquqi bilan ham aloqadir. Moliya huquqining asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasi milliy daromadini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ma'muriy huquq moliya sohasidagi boshqaruv munosabatlarni tartibga solsa, moliya huquqi moliyaviy munosabatlarning o'zini tartibga soladi.

Fuqarolik huquqi bilan ma'muriy huquq ham o'zaro aloqador hisoblanadi. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lgan ma'muriy organlarning (vazirliklar, davlat qo'mitalari, agentliklar, inspeksiya, hokimiyatlar va h.k.) xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan (xususiy tusdan yuridik va jismoniy shaxslar bilan) turli hil shartnomaviy-huquqiy munosabatlarga (xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan) kirishadi. Ma'muriy organlar ham yuridik shaxs sifatida o'z mulki, davlat gerbi tushirilgan muhri, javobgarligi bilan sudda da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etib o'z huquq va manfaatlarini himoya qila olish maqomiga ega. Ushbu holatlar ma'muriy huquqning fuqarolik huquqi bilan o'xshash va aloqador jihatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Ma'muriy huquq o'z tabiatiga ko'ra jinoyat huquqi bilan ham uzviy bog'liqlikka ega. Jumladan, har ikkala huquq tarmog'i ham ommaviy manfaatlarini, ya'ni jamiyatning aksariyat ko'pchiligi rasmiy tan olgan va belgilangan tartibda o'rnatilgan qoidalarga muvofiqlikni ta'minlash maqsadini ko'zlaydi. Xususan, biror bir faoliyat uchun litsenziya olish majburiyligi belgilangan bo'lsa, ushbu huquq tarmoqlari subyektlari o'sha umumbelgilangan majburiyatni amalga oshirish doirasida faoliyat yuritadi. Boshqacha ta'kidlaganda, mansabdor shaxs majburiyat bajarilishini ta'minlaydi, tartib qoida buzilgan holatda esa tegishli ta'sir chorasini ko'radi (intizomiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortish orqali). Jinoyat huquqi esa, barchamizga ma'lum bo'lganidek, yana o'sha umumbelgilangan qoidalar asosida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan tegishli ta'sir choralari ko'radi. Qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan dastlabki ehtiyot choralari ko'rish, sudgacha bo'lgan jarayonlarni davlat boshqaruvining tegishli organlari tomonidan tashkillashtirish kabi ishlarning amalga oshirilishi, ayniqsa, ma'muriy nazorat masalalarini amalga oshirish masalalari shular jumlasidandir.

Shunday qilib ma'muriy huquq sohasi boshqa huquq sohalari bilan uzviy bog'liqlikka ega va o'z o'rnida o'ziga xos xususiyatlari bilan ham ajralib turadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy huquq – bu davlat organlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi, uning vazifa va maqsadlari, vakolatlari hamda huquqiy maqomining boshqa tomonlarini, tuzilishi va faoliyat jarayonini belgilab beradi. U davlat boshqaruvi sohasida juda muhim o'ringa ega. Aynan davlat boshqaruvi

organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning deyarli barchasi ma'muriy huquq normalari yordamida amalga oshiriladi. Ma'muriy huquq- davlat huquqi normalarini yanada aniqlashtirib va to'ldirib, fuqarolarning ko'pgina huquq va majburiyatlarini, ularning boshqaruv organlari orqali amalga oshirish mexanizmini hamda ushbu huquqlarni har qanday buzilishlardan himoya qilishni belgilaydi. Ma'muriy huquq sohasining mohiyati shundaki, u Konstitutsiyada e'tirof etilgan, umum qabul qilingan qadriyatlarning, mustahkamlangan tartib qoidalarning real hayotdagi amaliy ifodasini ta'minlash maqsadida faoliyat yuritadigan davlat boshqaruvi organlari, ularning funktsiya va vakolatlari, mansabdor shaxslarining xatti-harakatlarining hamda xususiy shaxslar bilan munosabatlari qonuniyatlarini o'rgatadigan huquq tarmog'idir. Demak, ma'muriy huquqning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o'rnini va ahamiyatini aniqlash maqsadida uning huquq tizimining boshqa tarmoqlari bilan o'zaro munosabatini aniqlab olish lozim. Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib aytish mumkinki, ma'muriy huquq

O'zbekiston huquq tizimida o'zining juda muhim o'rniga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ma'muriy huquq. Prof.X.T.Odilqoriyev va B.E.Qosimovning umumiy tahriri ostida. Toshkent-2010
2. Ma'muriy huquq va protsess. Muratayev S.A, Musayev.B.T, Artikov D.R. Toshkent-2020
3. Ma'muriy huquq. Sh.T.Ikramov va I.A.xamedov tahriri ostida. Toshkent-2016
4. Ma'muriy huquq. Eekin Xojiyev, To'lqin Xojiyev. Toshkent-2008
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent-2021